

Murotova Muxlisa Yorqin qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti
Tarix ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi
@murotovamuxlisa358@gmail.com

BUXORONING ISLOM TARIXIDA TUTGAN O'RNI.

Annotasiya: Ushbu maqola, Buxoroning islom dini va madaniyatining shakllanishidagi muhim rolini o'rganadi. Buxoro tarixan, nafaqat O'rta Osiyo, balki butun musulmon dunyosida ilm-fan, diniy ta'lim va madaniyatning markazlaridan biri sifatida tanilgan. Maqola Buxoroning ilmiy va diniy hayotini, shu jumladan, shaharda faoliyat ko'rsatgan mashhur olimlar, faqihlar, mufasssirlar va mutafakkirlarning yuksak ilmiy salohiyatini tahlil etadi. Shahar madaniy va ilmiy markaz sifatida, Buxoro madrasalari va ilmiy muassasalarida o'qigan talabalarga hamda ilm-fan sohasida faoliyat yuritgan ko'plab mutafakkirlarga ilhom manbai bo'lgan. Maqola, shuningdek, Buxoroning islomiy tafsir, hadis, fiqh kabi ilmiy sohalarida qilgan kashfiyotlari va ulkan merosini ham yoritadi. Ushbu maqola, Buxoro shahrining islom tarixi va madaniyatidagi beqiyos o'rni, uning o'tmishda va bugungi kunda ilm-fan va diniy hayotga ta'siri haqida keng qamrovli tahlil beradi.

Kalit so'zlar: fiqh, mutafakkir, hadis, tafsir, mufasssir, madrasa, islom sivilizatsiyasi, diniy ta'lim, ilmiy markaz, madaniy meros, ulamolar.

BUKHARA'S PLACE IN ISLAMIC HISTORY.

Annotation: This article analyzes the significant role of Bukhara in the formation and development of Islamic religion and culture. Historically, Bukhara has been recognized not only in Central Asia but also throughout the Muslim world as one of the major centers of science, religious education, and culture. The article examines the scientific and religious life of the city, including the scholarly heritage of renowned scholars, jurists (fuqaha), exegetes (mufasssirs), and thinkers who lived and worked there. It also discusses the educational system formed through Bukhara's madrasas and scientific institutions, as well as their contribution to the development of Islamic exegesis, hadith studies, and fiqh. Furthermore, the article highlights Bukhara's place in Islamic civilization and evaluates the historical and cultural significance of its heritage in the modern era.

Keywords: fiqh, thinker, hadith, tafsir (Quranic exegesis), exegete (mufasssir), madrasa, Islamic civilization, religious education, scientific center, cultural heritage, scholars.

РОЛЬ БУХАРЫ В ИСТОРИИ ИСЛАМА.

Аннотация: Данная статья анализирует важную роль Бухары в формировании и развитии исламской религии и культуры. Исторически Бухара признана не только в Центральной Азии, но и во всём мусульманском мире как один из крупнейших центров науки, религиозного образования и культуры.

В статье рассматривается научная и религиозная жизнь города, включая наследие известных учёных, факихов, мufасссиров и мыслителей, работавших в Бухаре. Также анализируется система образования, сформированная через медресе и научные учреждения, и их вклад в развитие исламской экзегетики, хадисоведения и фикха.

Кроме того, в статье освещается место Бухары в исламской цивилизации и значение её историко-культурного наследия в современном мире.

Ключевые слова: фикх, мыслитель, хадис, тафсир (толкование Корана), мufасссир, медресе, исламская цивилизация, религиозное образование, научный центр, культурное наследие, учёные.

Kirish. Buxoro – bu nafaqat tarixiy shahar, balki islom madaniyatining yorqin ramzi, ilm-fan va diniy tafakkurning beqiyos makonidir. Bu shahar Markaziy Osiyodagi eng ko'hna va nomdor shaharlaridan biri bo'lib, O'zbekistonning janubi-g'arbiy qismida joylashgan, uning yoshi 2500 yildan oshib ketgan. Islom madaniyati poytaxti bo'lmish Buxoro azaldan "Buxoroi sharif" deb ulug'lanib kelinadi. Shahar markazining kattagina qismi me'moriy hudud sanalib, uning asosiy qismini madrasalar tashkil etadi. "Uning "Qubbatul Islom", ya'ni "Islom gumbazi" deb nomlangani ham bejiz emas. Aslida Buxoroi sharif bir necha asrlar davomida Islom madaniyati poytaxti bo'lib kelgan, desak xato bo'lmaydi. Zotan, uning "Qubbatul Islom" deb nomlangani ham bejiz emas. IHT tomonidan shaharning Islom madaniyati poytaxti deb e'tirof etilishi asrlar davomida ushbu shahar va unda yetishib chiqqan olimlarning Islom sivilizatsiyasiga hissa qo'shganini yana bir bor tasdiqlaydi.

Buxoro O'rta Osiyo va butun musulmon dunyosining tarixiy va ilmiy markazlaridan biri sifatida, islom tarixida beqiyos o'ringa ega. Ushbu qadimiy shahar o'zining ilm-fan, madaniyat va diniy hayoti bilan nafaqat o'rta asrlar, balki hozirgi kunda ham musulmon dunyosining madaniy xazinasiga o'zgacha hissa qo'shmoqda. Buxoro islomni qabul qilgach, uning madaniyati va ilmiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Shahar ilm-fan, ta'lim, fiqh, hadis, tafsir va falsafada erishilgan yutuqlar bilan dunyoga tanildi. Buxoro islom tarixida o'zining yirik madrasalari, masjidilari va ilmiy muassasalari orqali unutilmas iz qoldirdi. Islom sivilizatsiyasida ilm-fan va ma'rifat doimo yuksak qadrlanib kelgan. Aynan ilmga bo'lgan yuksak e'tibor tufayli musulmon dunyosining turli hududlarida ilmiy markazlar shakllanib, ular nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlarning ham rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Ana shunday markazlardan biri Buxoro bo'lib, u asrlar davomida ilm-fan, ta'lim va madaniyatning yirik o'choqlaridan biri sifatida tanilgan. Shaharda faoliyat yuritgan madrasalar, kutubxonalar va ilmiy muhit ko'plab allomalar, muhaddislar, faqihlar va mutafakkirlarning yetishib chiqishiga zamin yaratgan. Shu bois Buxoro nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamining yirik ilmiy va ma'rifiy markazlaridan biri sifatida e'tirof etilgan.

Buxoroning ilmiy salohiyati va islom olamidagi nufuzi xorijlik sayyoh va tadqiqotchilar tomonidan ham alohida e'tirof etilgan. Jumladan, XIX asrda Buxoroga tashrif buyurgan Ye. Meyendorf shaharni ko'plab madrasalari, mashhur allomalari va muqaddas qadamjolari tufayli musulmonlar uchun muhim ilm va ziyorat markazi sifatida ta'riflaydi. Uning qayd etishicha, aynan ana shu jihatlarda Buxoroning "Buxoroi Sharif" nomi bilan mashhur bo'lishiga asos bo'lgan. Bu fikr Buxoroning o'z davrida nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ilmiy hamda ma'naviy markaz sifatida ham yuksak mavqega ega bo'lganini ko'rsatadi.

Shu jihatdan qaraganda, Buxoroning islom tarixidagi o'rnini o'rganish nafaqat shahar tarixini yoritish, balki musulmon dunyosida ilm-fan va ma'rifat taraqqiyotining muhim bosqichlarini anglashda ham katta ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Buxoroning ilmiy roli uning ko'plab mashhur olimlari va mutafakkirlariga asoslanadi. Bu yerda yashab ijod qilgan buyuk olimlar masalan, Imom al-Buxoriy, al-Moturudiy, al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy va boshqa ko'plab bilimdonlar, islomiy ilmlar rivojiga katta hissa qo'shdilar. Buxoro madrasalarida o'qigan talabalarning ilmiy salohiyati butun dunyoda tan olingan va ular keyinchalik o'z ilmiy faoliyatlarini boshqa mintaqalarda ham davom ettirib, islom ilmlarini kengaytirishga xizmat qilgan. Bu ilmiy markazlar nafaqat diniy ta'lim, balki ilmiy tadqiqotlarning ham yurtiga aylangan.

Buxoro shuningdek, islomni o'rganuvchi va uning asosiy tamoyillarini targ'ib qiluvchi markaz sifatida muhim rol o'ynagan. Shahar masalan, hadis ilmida katta yutuqlarga erishgan. Imom al-Buxoriy tomonidan yaratilgan «Sahih al-Buxoriy» hadislari islomda eng ishonchli va muhim asarlardan biri sifatida bugungi kunda ham amal qilinmoqda. Buxoro tafsir ilmida ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritgan. Shaharning ilmiy va diniy muassasalarida o'qigan ko'plab olimlar Qur'onni o'rganish va sharhlashda o'zining yuksak bilimini namoyon etgan.

Buxoro shaharining madaniy hayoti nafaqat ilm-fan sohasida, balki adabiyot, san'at va falsafada ham o'ziga xos yuksalish ko'rsatdi. Bu yerda ilmiy meros va madaniyat bir-birini to'ldirgan, bu esa shaharni O'rta Osiyo va musulmon dunyosining eng nufuzli madaniy

32 markazlaridan biriga aylantirgan. Buxoro, shuningdek, turli xalqlar va dinlar o'rtasida ilmiy va madaniy muloqotning muhim platformasi bo'lgan. Shu sababli, Buxoro nafaqat islomiy merosning, balki insoniyatning umumiy ilmiy va madaniy merosining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Buxoro qadimdan boshqa shahar va davlatlar uchun o'rnak bo'lib kelgan. "Qubbat-ul islom" ya'ni "Islom dinining gumbazi" nomiga sazovor bo'lgan, nafaqat ilm-fan taraqqiyoti odimlagan, balki bu shahar barcha sohalarida, jumladan, o'zining muhtasham va ko'hna qadamjolari, madrasa va masjidlari, qadimiy qo'lyozmalari bilan ham ajralib turgan. Bugungi kunga kelib esa, Buxoro – 2020 yilda – Islom madaniyati poytaxti, degan ulug' nomga sazovor bo'ldi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zlarining Buxoroga tashriflari chog'ida bu shahar haqida: "...Bu joy ma'rifat markazi bo'lishi, odamlar o'ziga ilm olib ketishi kerak" - dedilar. Buxoro IX asrdayoq Abu Hafsi Kabirning sharofati bilan "Qubbat-ul islom" (Islom dinining gumbazi) unvonini olgan. Buxoroyi sharif (Sharofatli Buxoro) esa qadimda Buxoroning keng tarqalgan nomlaridan biridir. O'rta asrlarda jahondagi 7 shahar: Makka, Madina, Quddus, Buxoro, Bag'dod, Damashq, Mozori sharifga diniy markaz sifatida shuhrat qozonganliklari uchun "Sharif" unvoni berilgan. Xuroson shaharlaridan birontasi ham bunchalik ko'p nomga ega bo'lgan emas. Bu qadar betakror nomlar bilan nomlangan yurtida tug'ilib, o'sib, islom dinining turli sohalarida ijod qilgan allomalarimiz haqida gapirar ekanmiz, avvalo, Hoja imom Abu Hafsi Kabir Buxoriy, shu o'rinda bu kishining islom olamidagi o'rnining qanchalik ahamiyatli ekanligidan xabar bergan, yana Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida keltirilgan quyidagi jummalarni keltirib o'tishni lozim topdik. Buxoro madrasalari ta'lim tizimining eng yuqori bosqichi bo'lib, ilm maskani sifatida nafaqat Turonda, balki barcha musulmon mamlakatlarida madaniyat o'choqlari vazifasini o'tab, ma'rifat markazi bo'lgan. Buxoro madrasalari islom olamidagi eng mashhur va nufuzli oliy o'quv yurti bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masalalardagi fikrlari Misr va Hijozda o'qiganlarning fikrlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan[1].

Buxoro madrasalari faoliyati tarixiga oid maxsus tizimga solingan ma'lumotlar XX asrning boshlaridayoq paydo bo'la boshlagan. Sadri Ziyo, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitrat, Muhammad Ali Baljuvoni, Sayyid Mansur Olimiy kabi mualliflar Buxoro madrasalari haqida qimmatli ma'lumotlar berishgan[2]. SSSR davrida Buxoro madrasalari to'g'risidagi ma'lumotlar Lazar Rempel izlanishlarining muayyan qismini tashkil etadi. Lazar Rempel mahalliy aholidan olgan ma'lumotlaridan tashqari X—XVII asrlarda yashagan mahalliy va arab tarixchi-geograflaridan Muhammad Narshaxiy, Istaxriy, Ibn Havqal, Juvayniy, Maqdisiy, Tabariy, Ibn Hurdodbeh, Ibn al-Asir, Zayniddin Vosifiy va rus tarixchilaridan Vasiliy Bartold, Mixail Masson, Ivan Umnyakov, Vasiliy Shishkin va boshqa olimlarning asarlaridan keng foydalangan[3].

O'rta asrlarda Buxoro madrasalari ilm maskani sifatida nafaqat Movarounnahrda, balki Markaziy Osiyo, musulmon sharqida ham mashhur edi[4][5][6]. Sadridin Ayniyning qayd etishicha, Buxoro madrasalarining islom olamidagi nufuzi juda yuqori bo'lib, ularda ta'lim olgan ulamolarning diniy masaladagi so'zlari Misr va Hijozda o'qiganlarning so'zlaridan ko'ra mo'tabarroq hisoblangan[7]. Islom hamkorlik tashkilotining Fan, ta'lim va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi (ISESCO) har yili musulmon dunyosining tarixiy va madaniy merosini e'tirof etish maqsadida arab mamlakatlari, Osiyo hamda Afrika mintaqalaridan bittadan shaharni "Islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qiladi. 2020-yilda ushbu nufuzli maqomga Osiyo mintaqasidan Buxoro, arab davlatlaridan Qohira va Afrika qit'asidan Malining Bamako shahri sazovor bo'ldi. Mazkur maqom shaharning boy islomiy merosini targ'ib etish, tarixiy obidalarini asrash hamda zamonaviy musulmon dunyosidagi o'rnini namoyon etishga xizmat qiladi [8].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro shahrining Islom tarixidagi o'rni beqiyosdir. U nafaqat diniy markaz, balki ilmiy va madaniy merosni shakllantirgan muhim shahar sifatida ajralib turadi. Buxoro, o'zining mashhur ilm-fan vakillari va diniy ulamolari bilan, musulmon dunyosida katta ta'sir ko'rsatgan. Shaharning boy tarixiy va ilmiy merosi Islom madaniyati rivojiga katta hissa qo'shgan, shuning uchun Buxoro Islom tarixida o'chmas iz qoldirgan muhim markazlardan biri hisoblanadi. Buxoro shahrining islom tarixidagi o'rni beqiyosdir. U o'zining ilmiy, diniy va madaniy yutuqlari orqali butun musulmon dunyosining rivojiga katta hissa qo'shgan. Bugungi kunda Buxoro o'zining tarixiy va madaniy merosini asrab-avaylab, yangi avlodlarga ilm-fan,

ta'lim va madaniyat sohalarida yuksak maqsadlar sari ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Buxoro – bu nafaqat tarixiy shahar, balki islom madaniyatining yorqin ramzi, ilm-fan va diniy tafakkurning beqiyos makonidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bobojonova F..Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asrning oxiri-XX asr boshlarida).Toshkent:Adib,2014-128-bet.
2. Jumanazar A..Buxoro ta'lim tizimi tarixi. Toshkent:Akademnashr,2017-y,592b.
3. Boltayev A.H., Rajabov O.I XX asrning 40-yillarida Buxoroda tashkil etilgan ilmiy ekspiditsiya //O'tmishga nazar .-2021.-№6
4. To'rayev H. Buxoro amirligida maorif, fan va din // Туркі тілдес елдер. Республикалық ғилими-адістемелік жене танымдық журнал. -2012. — № 4
5. Bobojonova F.. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida). Toshkent: Adib, 2014 — 128-bet.
6. Asrorova L. Q.. Buxoro madrasalari tarixidan. Toshkent: Hilol-Nashr, 2017 — 224-bet.
7. Bobojonova F.. Buxoro amirligida ta'lim tizimi (XIX asr oxiri — XX asrning boshlarida). Toshkent: Adib, 2014 — 128-bet.
8. Elov J. "Buxoro – Islom olami madaniyati poytaxti". Mir Arab oliy madrasasi rasmiy sayti.